

PAPER

LEKSIK BIRLIKLARNING VALENTLIK IMKONIYATLARI VA MIKROSINTAGMATIK QURSHOV MUNOSABATI

Abdirazakova Zilola Kulmuratovna^{1,*}

¹Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti tayanch doktoranti

* abdirazakova589@gmail.com

Abstract

Ushbu ilmiy maqolada o'zbek tilshunosligining fundamental masalalaridan biri — leksik birliklarning valentlik imkoniyatlari va ularning mikrosintagmatik sathi munosabatlari tahlil qilinadi. So'zlarning kombinator imkoniyatlari, distributiv xususiyatlari hamda progressiv va regressiv qurshov munosabatlari zamonaviy lingvistik metodlar yordamida tadqiq etilgan. Valentlikning nafaqat grammatik, balki chuqur semantik-sintaktik tabiatga ega ekanligi, uning lisoniy qonuniyatlari hamda kognitiv freymlar bilan bog'liqligi yoritilgan. Mikrosintagmatik qurshovda leksik birlik ma'no ko'lamining o'zidan oldingi va keyingi birliklar ta'sirida o'zgarishi, ya'ni kontekstual cheklovlar va imkoniyatlar masalasi ko'rib chiqilgan.

Key words: valentlik, mikrosintagmatika, sintagmatik qurshov, distributsiya, semantik valentlik, sintaktik aktant, leksik birikuvchanlik, kognitiv freym.

Tilning murakkab va ko'p qirrali tizim sifatida o'rganilishi uning sathlararo birliklari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, xususan, leksik birliklarning birikuvchanlik imkoniyatlarini chuqur tadqiq etishni taqozo etadi. Zamonaviy tilshunoslik paradigmasida so'z shunchaki tushunchani ifodalovchi lisoniy belgi emas, balki o'zida ma'lum bir sintaktik va semantik energiyani tashuvchi, atrofiga boshqa birliklarni birlashtirish xususiyatiga ega bo'lgan dinamik

markazdir. Leksik birlikning valentligi — bu uning boshqa so'zlar bilan sintaktik va semantik aloqaga kirishish, gap strukturasida muayyan o'rinlarni band qilish hamda nutqiy jarayonda mazmuniy butunlikni hosil qilish qobiliyatidir.

Valentlik nazariyasining lisoniy tushuncha sifatida shakllanishi va rivojlanishi bevosita fransuz tilshunosi Lyusyen Tenyer nomi bilan bog'liqdir. U o'zining "Struktur sintaksis asoslari" asarida fe'lni gapning markazi sifatida belgilab, uning

Compiled on: February 2, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

atrofida aktyorlar va holat bildiruvchi birliklar guruhlanishini asoslab berdi [5, 12-b.]. Tenyerning ushbu nazariyasi tilshunoslikda inqilobiy burilish yasadi va gap tahlilini subyekt-predikat munosabatidan predikat-aktant qurilmasiga o'tkazdi. Bugungi kunga kelib, valentlik nazariyasi kognitiv va korpus tilshunosligi, shuningdek, kompyuter lingvistikasi doirasida yangicha talqin qilinmoqda. Endilikda valentlik faqat fe'l bilan cheklanib qolmay, ot, sifat va boshqa turkumlar doirasida ham, hatto frazeologik birliklar sathida ham o'rganilmoqda.

Leksik birliklarning mikrosintagmatik sathi munosabatlarini o'rganish tadqiqotning dolzarbligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Mikrosintagmatika so'zning bevosita qurshovi, ya'ni o'zidan oldingi va o'zidan keyingi birliklar bilan hosil qilgan minimal birikmalarini tadqiq etadi. Bu yerda "valentlik imkoniyati" tushunchasi so'zning potentsial quvvati sifatida namoyon bo'lsa, "mikrosintagmatik qurshov" ushbu imkoniyatning nutqda voqelanish maydonidir. Mazkur jarayonda leksik birlikning semantikasi uning sintaktik qurshovini belgilaydi, o'z navbatida, sintaktik pozitsiya so'zning semantik ko'lamiga aniqlik kiritadi yoki uni toraytiradi.

O'zbek tilshunosligida valentlik masalasi A.G'ulomov, M.Asqarova, R.Rasulov, SH.Shahobiddinova kabi olimlar tomonidan tahlil qilingan bo'lsa-da, leksik birliklarning mikrosintagmatik sathdagi distributiv xususiyatlari va kognitiv freymalar bilan bog'liqligi hali ham keng ko'lamli izlanishlarni talab etadi. Xususan, so'zning lisoniy xotiradagi o'rni va uning nutq zanjiridagi chiziqli munosabatlari o'rtasidagi aloqadorlikni ochib berish zamonaviy o'zbek tili korpusini yaratish va avtomatik tahlil qilish tizimlari uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi leksik birliklarning valentlik imkoniyatlari nafaqat grammatik qoida, balki chuqur semantik-kognitiv hodisa ekanligini isbotlashdan iborat. Bu jarayonda so'zning ochiq va yopiq valentliklari, ularning majburiylik va ixtiyoriylik darajalari hamda mikrosintagmatik qurshovning so'z ma'nosini differensiatsiya qilishdagi roli tahlil qilinadi. Bunday yondashuv leksik birliklarning

birikuvchanlik qonuniyatlarini chuqurroq anglashga va tilning ichki mexanizmlarini sintagmatik izchillikda ko'rsatib berishga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, valentlik va mikrosintagmatika munosabati tilning statik holatdan dinamik holatga o'tishidagi eng muhim lisoniy ko'prikdir.

Distributiv tahlil metodi tilshunoslikda birliklarning o'zaro joylashish tartibi va ularning atrofidagi "muhit"ni o'rganishda asosiy vosita hisoblanadi. Tadqiqotda ushbu metod yordamida har bir leksik birlikning o'ng - progressiv va chap - regressiv tomonidagi qo'shnilari bilan bog'lanish chegaralari qat'iy belgilab olindi.

Regressiv tahlil: Leksik birlikdan oldin keluvchi va uning ma'no ko'lamini chegaralovchi yoki kengaytiruvchi birliklar o'rganildi. Bu, ayniqsa, o'zbek tilidagi aniqlovchi-aniqlanmish munosabatlarida so'zning valentlik ochilishini kuzatishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Progressiv tahlil: Leksik birlikdan keyin keluvchi va uning semantik qurilishini yakuniga yetkazuvchi birliklar tahlil qilindi. Distributiv tahlil orqali so'zning "leksik qurshov doirasi" aniqlandi. Bu metodning afzalligi shundaki, u tilshunosga ma'no tahliliga kirmasdan turib, faqatgina birliklarning o'zaro joylashish qonuniyatlariga qarab ularning sintaktik imkoniyatlari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Valentlik tahlili va aktantlar nazariyasi: Tadqiqotning markaziy metodologik asosi sifatida valentlik tahlili qo'llanildi. Bu metod so'zning ayniqsa fe'lning o'ziga xos "molekulyar" tuzilishga ega ekanligidan kelib chiqadi. Valentlik tahlili jarayonida quyidagi amallar bajarildi:

Majburiy aktantlarni ajratish: Gapning grammatik va semantik butunligi uchun zarur bo'lgan birliklar, masalan, o'timli fe'llarda tushum kelishigidagi to'ldiruvchi aniqlandi. Majburiy valentliklarning nutqda realizatsiya qilinmasligi "semantik bo'shliq"ni keltirib chiqarishi dalillandi [2, 45-b.].

Ixtiyoriy aktantlar tahlili: Gap mazmunini boyituvchi, biroq uning strukturaviy tayanchi hisoblanmaydigan birliklarning o'rni belgilandi.

Valentlik tahlili jarayonida so'zning kvantitativ - son va kvalitativ - sifat valentliklari o'zaro farqlandi. Kvantitativ valentlik so'zning necha bo'sh o'ringa

egaligini ko'rsatsa, kvalitatif valentlik ushbu bo'sh o'rinlarni qanday semantik turkumdagi so'zlar to'ldira olishini belgilaydi.

Semantik komponent tahlil: Leksik birliklarning mikrosintagmatik qurshovda nega aynan ma'lum bir so'zlar bilan birikishi, boshqalari bilan esa mantiqiy ziddiyatga kirishishini tushunish uchun komponent tahlil metodi qo'llanildi. Har bir leksik birlik kichik ma'no bo'laklariga — semalarga ajratildi.

Masalan, "suv ichmoq" birikmasida "ichmoq" fe'lining valentlik ochilishi uchun uning ob'ekti tarkibida [+suyuqlik] semasi mavjud bo'lishi shart. Agar mikrosintagmatik qurshovda [+qattiq jism] semasiga ega so'z kelsa, valentlik bloklanadi yoki ko'chma ma'no metafora hosil bo'ladi. Komponent tahlil valentlikning semantik asosi lisoniy xotirada qanday kodlanganligini ochib berishga xizmat qildi.

Kognitiv-freyimli yondashuv: Leksik birliklarning birikuvchanligi faqatgina grammatik qoidalar bilan emas, balki inson tafakkuridagi "freymlar bilimlar strukturasi bilan ham bog'liq. Tadqiqotda valentlik nazariyasi kognitiv tilshunoslik tamoyillari bilan uyg'unlashtiriladi. Bunda har bir so'z ma'lum bir "voqelik ssenariysi"ning markazi sifatida qoraladi. Masalan, "sotmoq" fe'li o'z kognitiv freymida kamida to'rtta valentlikni sotuvchi, xaridor, tovar, narx faollashtiradi. Bu yondashuv valentlikning nafaqat so'zlar o'rtasidagi bog'liqlik, balki voqelikning tildagi modeli ekanligini isbotlash imkonini beradi.

Transformatsion va o'rin almashish metodlari: Mikrosintagmatik munosabatlarning barqarorligini tekshirish uchun transformatsiya metodidan foydalaniladi. Bunda sintaktik qurilmada birliklarning o'rni almashtiriladi yoki bir struktura boshqasiga masalan, faol nisbatdan majhul nisbatga aylantiriladi.

"Talaba kitobni o'qidi"

"Kitob talaba tomonidan o'qildi".

Ushbu transformatsiya jarayonida fe'lining valentlik imkoniyatlari sub'ekt va ob'ekt valentliklari qanday o'zgarishi, qaysi aktantlar markaziy o'rindan chetga chiqishi tahlil qilinadi. Bu metod orqali valentlikning sintaktik sathdagi egiluvchanligi va mustahkamligi aniqlanadi.

Polisemiya hodisasi valentlik tahlilini

murakkablashtiradi. Shu bois, tadqiqotda kontekstual tahlil metodidan foydalanib, so'zning konkret ma'nosi uning qurshovi orqali "filtrlandi". Kontekst valentlikning ma'no ajratish funksiyasini qanday bajarishi kuzatiladi. Mikrosintagmatik qurshovdagi birgina so'z masalan, "ochmoq" fe'li bilan kelgan "eshik" "sirlar" yoki "ishtaha" so'zlari asosiy birlikning qaysi valentlik imkoniyatini ishga tushirishini belgilab berishi tahliliy misollar bilan ko'rsatiladi.

O'zbek tili sintaksisida fe'l gapning ham strukturaviy, ham semantik markazi predikati sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili fe'llari o'zining leksik-semantik tabiati va boshqaruv xususiyatiga ko'ra 1 tadan 4 tagacha majburiy valentlikka ega bo'lishi mumkin [4, 78-b.].

Valentlik darajalari: Tahlillar shuni tasdiqladiki, fe'lining valentlik darajasi uning semantik tarkibiga semasiga bog'liq. Masalan, "uxlamoq" kabi o'timsiz fe'llar bir valentli faqat subyektni talab qiladigan bo'lsa, "bermoq" kabi o'timli fe'llar to'rt valentli subyekt, bevosita obyekt, adresat va vosita bo'lishi mumkin.

Semantik-sintaktik muvofiqlik: Tadqiqot davomida fe'l valentligining ochilishi uchun nafaqat grammatik kelishik shakli, balki semantik moslik ham birlamchi ekanligi aniqlandi. Masalan, "ichmoq" fe'lining obyekt valentligini to'ldiruvchi birlik tarkibida [+suyuqlik] semasi bo'lishi shart. Bu esa valentlikning shunchaki shakliy emas, balki chuqur mazmuniy hodisa ekanligini isbotlaydi.

Majburiylik va ixtiyoriylik: Natijalar shuni ko'rsatdiki, fe'l atrofida guruhlanuvchi aktantlarning barchasi ham gapning minimal strukturasi uchun zarur emas. Majburiy valentliklar masalan, "yozmoq" fe'lida subyekt va obyekt tushib qolsa, nutqiy nuqson yuzaga keladi, ixtiyoriy valentliklar esa axborotni konkretlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilining tipologik tabiatiga ko'ra (SOV – Subject+Object+Verb), leksik birliklarning valentligi asosan regressiv yo'nalishda (chapdan o'ngga qarab) voqelanadi [1, 112-b.]. Bu shuni anglatadiki, o'zbek tilida gap markazi bo'lgan fe'l predikat gap oxirida keladi va o'zidan oldingi barcha bo'shliqlarni valentliklarni to'ldirib boradi.

Regressiv valentlik ustuvorligi: O'zbek tilida

fe'l o'zining sintaktik "sheriklarini" aktantlarini o'zidan oldingi pozitsiyalarga yig'adi. Bu jarayon tinglovchi yoki o'quvchi ongida kognitiv kutish holatini keltirib chiqaradi. Ya'ni, gap oxiridagi fe'l kelguncha barcha aktantlar o'z o'rnini egallab bo'ladi.

Progressiv valentlik elementlari: Garchi o'zbek tili regressiv xarakterga ega bo'lsa-da, ba'zi holatlarda kirish so'zlar qo'llanganda progressiv o'ng tomonga yo'nalgan valentlik aloqalari ham kuzatiladi. Bu holat mikrosintagmatik qurshovning egiluvchanligini ta'minlaydi.

Nutqiy tejamkorlik qonuniyati: Agarda kontekst yoki situatsiya aktantni anglatib tursa, majburiy valentliklar ham nutqda tushirib qoldirilishi mumkin. Bu esa til tizimidagi valentlik va nutqdagi valentlik o'rtasidagi farqni yuzaga chiqaradi.

Tadqiqot natijalari mikrosintagmatik qurshovning leksik birlik ma'nosini aniqlashtirishdagi rolini yangi qirralarini ochib berdi. Bir valentli so'zning ma'no doirasi u bilan birikayotgan qo'shni birliklar ta'sirida o'zgaradi shuning uchun bu "mikrosintagmatik sathi munosabati" deb ataladi.

Ma'noni toraytirish: Ko'p ma'noli polisemantik so'zlar mikrosintagmatik qurshovga kirganda, boshqa ma'nolar bloklanadi (neytrallashadi) va faqat bitta ma'no aktuallashadi. Masalan, "olmoq" fe'li "kitobni olmoq" (jismoniy harakat), "nafas olmoq" (fiziologik jarayon), "maosh olmoq" (iqtisodiy munosabat) qurshovlarida turlicha valentlik xususiyatlarini namoyon qiladi.

Kollokativ bog'liqlik: Natijalar shuni ko'rsatdiki, ayrim leksik birliklar o'rtasida "kuchli valentlik" mavjud bo'lib, ular barqaror birikmalarni kollokatsiyalarni hosil qiladi. Bunday birikmalarda so'zning erkin valentlik imkoniyati cheklanadi va u faqat muayyan leksik sherik bilangina ma'no anglatadi.

O'zbek tilidagi regressiv tartib va fe'lning markaziy o'rni mikrosintagmatik qurshovning o'ziga xos arxitekturasini belgilab beradi. Bu natijalar kelajakda o'zbek tili uchun avtomatik sintaktik analizatorlar yaratishda va so'z birikuvchanligi lug'atlarini boyitishda fundamental baza bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, valentlik tushunchasi an'anaviy

grammatik doiradan chiqib, chuqur kognitiv va semantik hodisa sifatida talqin qilinishi lozim. Valentlikni faqat so'zlarning bir-biriga grammatik kelishiklar orqali bog'lanishi deb tushunish, tilning murakkab ichki mexanizmlarini cheklab qo'yadi. Aslida, valentlik — bu inson tafakkuridagi kognitiv freymlarning lisoniy in'ikosidir.

Charlz Fillmorning "freyms semantikasi" nazariyasiga ko'ra, har bir leksik birlik, ayniqsa harakat bildiruvchi fe'llar, inson ongida muayyan bir "ssenariy" yoki "freym" ni faollashtiradi. Bu freym o'z semantik strukturasida muayyan "bo'shliqlar" ni saqlaydi va ushbu bo'shliqlar nutq jarayonida aniq leksik birliklar bilan to'ldiriladi [8, 115-b.].

O'zbek tilshunosligida valentlik masalasi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan R.Rasulov fe'llarning valentlik imkoniyatlarini tasniflar ekan, ularning mikrosintagmatik qurshovini aniq lisoniy modellar asosida tushuntiradi [4, 56-b.]. Uning yondashuvida fe'lning ma'no turlariga ko'ra (holat fe'llari, harakat fe'llari, nutq fe'llari va h.k.) valentlik imkoniyatlari turlicha bo'lishi isbotlangan.

Muhokama jarayonida shunga amin bo'ldikki, R.Rasulov tomonidan asoslangan lisoniy modellar bugungi kun korpus lingvistikasi uchun ham dolzarbdir. Biroq, zamonaviy mikrosintagmatik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, valentlik faqat fe'lning "mulki" emas. Otlar, sifatlar va hatto ravishlar ham o'ziga xos "valentlik maydoni" ga ega. Masalan, "muhtoj" sifati o'zidan oldin chiqish kelishigidagi otni (suvga muhtoj) talab qilishi uning adleksial valentligi mavjudligidan dalolat beradi. Bu esa o'zbek tili sintagmatikasini yanada kengroq masshtabda o'rganish zaruriyatini tug'diradi.

Mikrosintagmatika — bu minimal sintaktik qurilish bo'lib, unda leksik birlik o'zining bevosita qo'shnilari bilan aloqaga kirishadi. Muhokama markazida turgan asosiy masalalardan biri — kontekstning valentlikni cheklash yoki kengaytirish funksiyasidir. Mikrosintagmatik qurshov so'zning ko'p ma'noliligini bartaraf etuvchi "filtr" vazifasini bajaradi. Agar fe'lning mikrosintagmatik qurshovida o'ng yoki chap tomonida kelayotgan birlik mavhum ot bo'lsa, fe'l ko'chma ma'noga metaforaga moyillik ko'rsatadi. Masalan, "yo'lni ochmoq" (fizik harakat) va

”imkoniyatlarni ochmoq”(metaforik ma’no). Bu yerda valentlikning semantik-sintaktik tabiati kognitiv assotsiatsiyalar bilan birlashib ketadi.

O‘zbek tilining pragmatik xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi umumiy bilim presuppozitsiya mavjud bo‘lganda, majburiy valentliklar ham mikrosintagmatik sathi munosabatlarida moddiy ifodalanmasligi mumkin. Masalan, ”Yozdingmi?”savolida ham subyekt (sen), ham obyekt (xat, dars yoki maqola) tushib qolgan bo‘lsa-da, fe’lning valentlik quvvati bu ma’nolarni kontekst ichida ushlab turadi. Bu hodisa o‘zbek tili nutqiy dinamikasining o‘ta yuqoriligidan va mikrosintagmatik qurshovning nafaqat so‘zlar, balki vaziyat bilan ham bog‘liqligidan dalolat beradi.

Valentlik va mikrosintagmatik qurshov munosabatlarini o‘rganish amaliy ahamiyatga ham ega. Sun’iy intellekt va mashina tarjimasida tizimlarida o‘zbek tilining sintaktik tahlilini to‘g‘ri amalga oshirish uchun har bir leksik birlikning valentlik lug‘ati yaratilishi shart.

Muhokama qilingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bunday lug‘atlar nafaqat so‘zning qaysi kelishik bilan birikishini, balki qanday semantik turkumdagi shaxs, narsa, makon, zamon so‘zlar bilan kelishini ham o‘z ichiga olishi kerak. Bu o‘zbek tili milliy korpusi va uning avtomatik tahlil modullarini takomillashtirishda fundamental poydevor bo‘ladi.

Valentlik — bu tilning statik imkoniyati lisoniy potensial bo‘lsa, mikrosintagmatik qurshov ushbu imkoniyatning dinamik voqelanishidir. R.Rasulov va boshqa o‘zbek olimlarining nazariy qarashlari zamonaviy kognitiv metodlar bilan boyitilganda, tilning tabiatini yanada aniqroq tushunish imkonini beradi. Valentlik nafaqat gap qurish qoidasi, balki voqelikni til vositasida modellashtirish usulidir.

Leksik birliklarning valentlik imkoniyatlari va ularning mikrosintagmatik sathi munosabatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

Birinchidan, leksik birliklarning valentligi til tizimidagi shunchaki grammatik qoida emas, balki so‘zning semantik strukturasida dasturlashtirilgan potentsial lisoniy imkoniyatdir. Bu imkoniyat tilning statik holatidan dinamik holatga, ya’ni

nutqqa o‘tish jarayonida mikrosintagmatik qurshov orqali voqelanadi. Har bir leksik birlik, xususan fe’llar, o‘zida ma’lum bir ”semantik energiya”ni saqlaydi va bu energiya gap strukturasida bo‘sh o‘rinlarni yaratadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, valentlikning lisoniy va nutqiy ko‘rinishlari o‘zaro farqlanadi: agar lisoniy valentlik so‘zning barcha mumkin bo‘lgan birikuvchanlik quvvatini anglatga, nutqiy valentlik muayyan kontekstda konkretlashgan munosabatdir.

Ikkinchinchidan, o‘zbek tilining tipologik xususiyatlari, xususan, uning aglyutinatativ tabiati va qat’iy so‘z tartibi (SOV – Subject+Object+Verb) valentlik yo‘nalishini belgilab beruvchi asosiy omildir. O‘zbek tilida valentlik asosan regressiv (chap tomonlama) yo‘nalishga ega. Ya’ni, gapning valentlik markazi bo‘lgan predikat gap oxirida kelib, o‘zidan oldin kelgan barcha komponentlarni sub’ekt, obyekt, holat o‘ziga biriktiradi va gapning mazmuniy butunligini yakunlaydi. Bu holat o‘zbek tili sintagmatikasining o‘ziga xos arxitekturasini tashkil etadi va tinglovchida kognitiv kutish mexanizmini faollashtiradi.

Uchinchidan, mikrosintagmatik qurshov leksik birlik uchun nafaqat yashash muhiti, balki semantik filtr vazifasini ham bajaradi. Ko‘p ma’noli so‘zlar aynan mikrosintagmatik sathi munosabatlarida o‘zining konkret ma’nosini kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, so‘zning o‘ng yoki chap tomonidagi qo‘shnilari uning valentlik doirasini yo toraytiradi, yoki kengaytiradi.

To‘rtinchidan, Inson xotirasidagi har bir tushuncha o‘z atrofida ma’lum bir ”ssenariy”ni shakllantiradi. Mazkur ssenariyda qatnashishi shart bo‘lgan ishtirokchilar aktantlar valentlikning majburiylik darajasini belgilaydi. Tadqiqotda fe’l turkumiga oid birliklarning majburiy va ixtiyoriy aktantlarini ajratish orqali o‘zbek tili gap qurilishining minimal va kengaygan modellari tizimlashtiriladi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari o‘zbek tili korpus lingvistikasini rivojlantirish va so‘z birikuvchanligi lug‘atlarini yaratishda amaliy ahamiyatga ega. Raqamli tilshunoslikda so‘zlarning kombinator imkoniyatlarini modellashtirish avtomatik tarjima, matnlarni

tahrir qilish va sun'iy intellekt tizimlarining o'zbek tilida mukammal ishlashini ta'minlaydi. Leksik birliklarning valentlik lug'atini yaratish o'zbek tili milliy korpusining semantik-sintaktik markirovkasini boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, valentlik va mikrosintagmatik qurshov munosabati tilning statik imkoniyatlari va dinamik nutq o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir. Ushbu munosabatlarni o'rganish o'zbek tili qurilishini yangi bosqichda — lisoniy tizim, nutqiy faoliyat va kognitiv jarayonlarning sintezi sifatida anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1989. – 180 b.
2. Mengliyev B.R. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar. – Toshkent: Fan, 2007. – 164 b.
3. Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi. – Toshkent: Universitet, 1999. – 120 b.
4. Rasulov R. O'zbek tili fe'llarining valentlik tahlili. – Toshkent: Fan, 2001. – 124 b.
5. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Sintaksis). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 320 b.
6. Tesnière L. Éléments de syntaxe structurale. – Paris: Klincksieck, 1959. – 670 p.
7. Ziyoyev A. O'zbek tili fe'llarining semantik valentligi: Filol. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Samarqand, 2021. – 62 b.
8. Fillmore Ch.J. Frame semantics // *Linguistics in the Morning Calm*. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – Pp. 111–137.
9. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi shakllanishi va rivojlanishi masalalari: Filol. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 1999. – 280 b.
10. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 408 b.